



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“NAVOIYAZOT” AKSIONERLIK JAMIYATI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**

“NAVOIAZOT” AJ 60 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

**“O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN, KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA
ISHLAB CHIQRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI

(15-noyabr 2024-y.)

NAVOIY - 2024



“Eng katta boylik bu — aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu — yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu — bilimsizlikdir. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Shavkat Mirziyoyev

kislotada = 100% va $P_2O_{5\text{suv.}} : P_2O_{5\text{um.}} = 97,60-98,73\%$. Bunda sulfat ioni $(NH_4)_2SO_4$ shaklida bo'lib, mahsulotga yangi sifat beradi.

Iqtisodiy jihatdan o'z ta'siriga ega bo'lgan bunday suyuq mahsulotlar issiqxonalarda (jumladan, bog'larda, rezavorzorlarda, uzumzorlarda va boshqa ekinlarda) tomchilatib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ular, shuningdek, suvda eruvchan suyuq NPK-o'g'itlarini ishlab chiqarish uchun asosiy yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin.

GAZBETON ISHLAB CHIQUARISHNING TEXNIK XUSUSIYATLARI

E.D. Niyozov, I.I. Norov, S.F. Sultonova

Buxoro davlat universiteti

Yoqilg'i hamda energetika resurslarini tejash, binolar va inshootlarni issiqlikdan himoya qilish samaradorligini oshirish, energiya tejovchi materiallar va texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston va jahon qurilish sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bugungi kunda bu yo'nalishda qo'llanadigan samarali qurilish materiallaridan biri gazobetonidir.

Gazobeton zamonaviy qurilishning turli sohalaridakeng qo'llanilishda o'z o'rnini topdi, bu ularning g'ovakli tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari hamda shunga mos ravishda funktsional maqsadlarning xilma-xilligi bilan bog'liqdir. G'ovaklar kichik o'lchamda 0,5 - 3 mm bo'lganligi sababli, betonning yuk ko'taruvchanlik xususiyati teng taqsimlanadi.

1-jadval

Gazobetonning asosiy texnik xususiyatlari

G'ovaklilik, %	Zichlik, kg / m ³	Siqilish kuchi, MPa	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Vt/(m·K)
50	1100–1200	10–15	0,33–0,40
60	900–1000	5–12	0,24–0,30
70	700–800	2,5–5	0,17–0,22
80	400–600	1,2–4	0,10–0,14
90	200–300	0,7–1,2	0,06–0,08

Avtoklavlangan gazobeton QMQ 2.01.04.18 (qurilish meyorlari va qoidalari) da hisobga olinmagan bir qator ishlab chiqarish xususiyatlariga ega. Xususan, gaz hosil qiluvchi vosita gazobetonning g'ovakli tuzilishini shakllantirishda asosiy komponent bo'lganligi sababli, bu uning miqdorini hisoblashni aniqlashtirishni talab qiladi. Berilgan g'ovaklikka ega bo'lgan gazbetonni olish uchun gaz hosil qiluvchi vosita miqdorini aniq hisoblash taklif etiladi.

Alyuminiy kukunining massasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$m = \frac{P \cdot G'ov}{\alpha RTN}$$

Agar gaz hosil bo'lish jarayonlarining tezligi va aralashmaning reologik xususiyatlarining o'zgarishi orasida o'zaro bog'liqlik bo'lsa, unda gazobeton

aralashmasining eng yaxshi hajm oshishiga va yuqori darajada g'ovakli strukturasi shakllantirishga erishish mumkin.

Reaksion aralashma va qolip gazobetonning mustahkamligiga temperaturaning ta'siri o'rganildi. Buning uchun qolipga quyilgan namunalar 34, 37, 40, 42 va 45°C haroratda ushlandi.

2 jadval

Reaksion aralashma, qolip va suv haroratining gazbeton
mustahkamligi va o'rtacha zichligiga ta'siri.

Aralashtirishdagi suv harorati, °C	Aralashma harorati, °C	Qolip harorati, °C	ρ_c kg/m ³	Mustahkamlik МПа
50	34	54	505	1,7
50	34	58	480	1,66
55	37	54	455	1,6
55	37	58	430	1,56
58	40	54	360	1,8
58	40	58	375	1,6
60	42	54	379	1,9
60	42	58	370	1,65
70	45	54	332	1,5

Aralashmaning haroratini oshirish, aralashma hajmi oshish jarayonini tezlashtirdi. Aralashma harorati 40...42°C dan sezilarli darajada past bo'lgan hollarda gaz hosil bo'lish jarayoni intensiv davom etsada, aralashmaning plastik mustahkamligi kamaygan.

Aralashmaning harorati optimal darajadan yuqori bo'lgan hollarda, gaz chiqishi tezlashdi, aralashma tezda qaynab ketganday shishib ketdi. Aralashmaning gazni ushlab turish qobiliyati yetarli emasligi sababli, gazning bir qismi undan chiqib ketdi, struktura buzildi va aralash katta cho'kindi hosil qildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yuqori konstruktiv va texnik xususiyatlarga ega bo'lgan iqtisodiy samarador gazobetonni olish va uni ishlab chiqarish masalasini dolzarblashtirish imkonini berdi.

ОПРЕДЕЛЕНИЯ ОГНЕЗАЩИТНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОДУКТОВ КИСЛОТНОЙ ПЕРЕРАБОТКИ НИЗКОСОРТНЫХ ФОСФОРИТОВ КЫЗЫЛКУМСКОГО ФОСФОРИТНОГО КОМПЛЕКСА

М.Н.Муратова¹., И.Н.Турсунова¹., У.М.Мардонов²

¹Навоийский государственный горно- технологический университет

²Бухарский технологический университет

В настоящее время использование природного минерального сырья, содержащего соединения фосфора, кремния, алюминия, железа и азота, отходов горнодобывающей и химической промышленности в производстве антипиреновых средств требует диверсификационного подхода.

Для определения огнезащитной эффективности продуктов кислотной переработки низкосортных фосфоритов проведены огневые испытания в научно-